



«O'ZBEKISTONNING XIZMAT KO'RSATISH SOHALARIGA INVESTITSIYA KIRITISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI»

Tulayeva Ozodaxon Shokir qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy
fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari yonalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mamlakatimizning hozirgi kundagi ijtimoiy holatini yuksaltirishda ya'ni aholi turmush darajasini oshirish, hududlardagi ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni kattadir. Biroq, sarmoyalar barcha hududlarga ham birdek jalb qilinmaydi, sababi, har bir hududda aholi soni, ularning daromad va ehtiyojlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Hududlardagi aholining sonini ortib borishini oldindan prognoz qilib borish va ijtimoiy ob'ektlarni ham shunga mos ravishda qurib borish lozim, zero, aholi ko'p bo'lgan hududlarda sotsial muammolar ham ortib boradi. Bunday muammolarni oldini olish va yechimini topishda ijtimoiy geografik tadqiqotlarning o'rni kattadir.*

Kalit so'zlar: *Investitsiya, davlat investitsiyasi, xorijiy investitsiya, aholi daromadlari, sotsial geografik tadqiqotlar, hududlar infrastrukturasi, aholini prognozlashtirish.*

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, aholi turmush darajasini yaxshilash ya'ni, mamlakatimiz ijtimoiy sohalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri deb belgilandi. Hozirgi vaqtda ham bunday ijtimoiy sohalarni rivojlantirish naqadar ustuvor vazifa ekanligi o'z isbotini topmoqda, chunki, rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotiga nazar tashlasak mamlakatga va aholiga asosiy foyda olib keluvchi sohalari, sanoat yoki qishloq xo'jaligi emas, aynan, xizmat ko'rsatish sohalaridir.

Xizmat ko'rsatish sohalari aholining rivojlanishiga va daromadlariga mos ravishda rivojlanib boradi, ya'ni, qaysi davlatda xizmat ko'rsatish sohalari xilma-xil bo'lsa, demak, o'sha davlatda aholining daromadlari yuqori darjada. Hozirgi kunda mamlakatimizda ko'plab xizmat ko'rsatish sohalari rivojlangan va rivojlanib bormoqda, bular: ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, aloqa vatelekkommunikatsiya,



rekreatsiya, transport, bank va moliya, bozor xizmatlari, yashash va ovqatlanish, tashish va saqlash, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar va boshqa xizmatlarni kiritish mumkin. Ushbu xizmat turlari mamlakatimizning asosan, aholi salmog'i yuqori bo'lgan viloyatlarda va shaharlarda rivojlangan.

Ma'lumki hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasiga jalb qilinayotgan investitsiyalar, asosan, davlat tomonidan jalb qilinayotgan, davlat investitsiyalaridir. Xorijiy investitsiyalar esa asosan foydali qazilmalarni qidirish, mavjudlarini qazib chiqarish va o'zlashtirishga jalb qilinmoqda. Demak, bundan shuni anglash mumkinki, xorijiy sarmoyadorlarni asosan aniq foyda olish ko'proq qiziqtiradi.

Xizmat ko'rsatish sohasidan foyda olish va sarf qilingan mablag'ni qoplab olish uchun vaqt kerak bo'ladi. Davlat xizmat ko'rsatish sohasiga investitsiya jalb qilishda qaysi hududlarga ko'proq jalb qilish lozim degan savolga iqtisodiy geografik tadqiqotlar orqali javob olish mumkin. 2020-yil davomida mamlakatimizning tashish va saqlash (jami kiritilgan investitsiyaning 17,3 %), sog'liqni saqlash (10,3 %), savdo shu jumladan transport vositalarini ta'mirlash (15,5%), ta'lim (8,9 %), axborot va aloqa (8,7 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat (6,4 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olish (6,1%), yashash va ovqatlanish (4,2 %), moliya va sug'urta faoliyati (4,1 %), kabi sohalarga investitsiyalar kiritilgan. Shu bilan birga 2020-yil mobaynida mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi, ya'ni, O'zbekistonda moliyaviy xizmatlar, axborot va axborotlashtirish xizmatlari, savdo xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlar salmog'i ortgan bo'lsa, transport xizmatlari, yashash va ovqatlanish, kabi xizmatlar sohasida birmuncha pasayish kuzatildi. Bu ham albatta, aholining ehtiyojlariga bo'g'liq holatda o'zgargan. Xizmat ko'rsatish sohasiga hududlar bo'yicha investitsiya kiritishda asosan, xizmatlarning hududlar bo'yicha rivojlanishini e'tiborga olish lozim. Aholi soni qaysi hududda yuqori bo'lsa



,demak, o'sha hududda xizmatlar ham yuqori darajada rivojlangan bo'ladi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarining hududlar miqyosida rivojlanganligiga nazar tashlasak, Toshkent shahri yuqori o'rinda ekanligini ko'rishimiz mumkin, keyingi o'rinlarda Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati, Toshkent viloyati, Buxoro viloyati hisoblanadi. Ushbu viloyatlarda aholi salmog'i yuqori va o'sishda davom etmoqda. Ta'lim sohasiga investitsiya kiritishda yuqoridagi viloyatlarni birinchi navbatda hisobga olish va o'ylash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi eng past viloyatlarga Sirdaryo viloyati, Navoiy viloyati, Jizzax viloyatlari kiradi. Ushbu viloyatlarda aholi soni ham eng past salomog'ga ega. Ushbu viloyatlar ta'lim sohasiga jalb qilingan investitsiyalarni ko'p talab qilmaydi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi umumiy xizmatlar hajmining hududlar kesimidagi ulushini viloyatlar bo'yicha taqqoslasak eng yuqori hajmdagi xizmatlar: Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Farg'ona viloyati, Samarqand viloyati, Andijon viloyati, Namangan viloyatlarida yuqori ekanligiga guvohi bo'lamiz. Bu ham albatta aholi soni bilan bo'g'liq, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi eng kam miqdorga ega bo'lgan viloyatlar Sirdaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy viloyati, Jizzax viloyatlari bo'lib turibdi. Chunki ushbu viloyatlarda aholi soni past ko'rsatkichga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasida Orolbo'yi muammosi tufayli ko'p kasalliklar kelib chiqqan bo'lishiga qaramay sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar past rivojlangan, sababi, Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi soni kam. Hozirgi vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 948 496 kishi yashamoqda bu miqdor bo'yicha Respublikada 10-o'rinda turibdi. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash

sohasidagi xizmatlar hajmi bo'yicha eng yuqori shahar Toshkent shahri hisoblanadi ,lekin, ushbu ko'rsatkich xizmatlar aholi soniga bog'liq holda rivojlanadi degan qonuniyatga mos kelmaydi ,chunki, mamlakatimizda Samarqand viloyati, Farg'ona viloyati, Qashqadaryo viloyati, Andijon viloyati, Toshkent



viloyati, Namangan viloyatlarida aholi soni Toshkent shahri aholi sonidan yuqori ,lekin, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bo'yicha Toshkent shahriga qaraganda past darajada rivojlangan. Bunday bo'lishiga asosiy sabab aholi daromadlarining past yoki yuqori bo'lishidir. Toshkent shahrida, hududlar bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar hajmi 23 563,1 ming so'm bo'lib, poytaxtimiz ushbu ko'rsatkich bo'yicha Respublikada birinchi o'rinda turadi. Aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar hajmi bo'yicha: Samarqand viloyatida 10 391,3 ming so'm, Farg'ona viloyatida 8 728,1 ming so'm, Qashqadaryo viloyatida 9 863,4 ming so'm, Andijon viloyatida 10 753,3 ming so'm, Toshkent viloyatida 12 565,3 ming so'm, Namangan viloyatida 9 049,3 ming so'm bo'lib Toshkent shahridan ancha past salmog'ga ega.

Bundan shuni anglash mumkinki, sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishi, faqat aholi soni bilan bog'liq bo'lmay, aholi daromadlariga ham bo'g'liqdir. Aholi daromadlari yuqori bo'lgan hududlarda tibbiyot uskunalari aholi talabiga bog'liq holda zamonaviylashadi. Demak, hududlar bo'yicha sog'liqni saqlash sohasiga investitsiya kiritishda aholi daromadlarini ham hisobga olish lozim. Navoiy viloyatida esa aholining jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlari yuqori ,ya'ni, 19 200,2 ming so'm bo'lib, bu miqdor bo'yicha mamlakatimizda 2-o'rinda turadi, biroq, aholi soni juda past ,ya'ni, 1 033 869 kishi ekanligi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sishiga to'sqinlik qilgan. Navoiy viloyatida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi juda past ,ya'ni, Respublika bo'yicha atigi, 2,2 % bo'lib mamlakatimizda 12-o'rinda turadi. Tibbiyot sohasini rivojlantirish uchun hududlar miqyosida sarmoya kiritganda avvalo hududlardagi aholi soni, aholining o'rtacha daromadlari va aholining kasallanish ko'rsatkichlarini hisobga olish lozim. Aholi soniga bog'liq ravishda rivojlanadigan xizmatlarga ta'lim va sog'liqni saqlashdan tashqari, bozor xizmatlarini ham kiritish mumkin. Mamlakatimizda bozor xizmatlari eng yuqori rivojlangan viloyat va shaharlarga: Toshkent shahri



(36,3%), Toshkent viloyati (7,6 %), Samarqand viloyati (6,5 %), bozor xizmatlari eng past rivojlangan viloyatlarga: Sirdaryo viloyati (1,5 %) Jizzax viloyati (2,3 %), Navoiy viloyati (2,6 %) kiradi.

Xizmat ko'rsatish sohalari tarkibiga hozirgi vaqtda qurilish sohasini ham kiritish mumkin, biroq, qurilish sohasi, aholiga bevosita xizmat ko'rsatmasa ham, aholi yashashi uchun xizmat qiladi, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalari ham binolarda faoliyat olib boradi. qurilish sohasini, xizmat ko'rsatish sohasiga, xizmat ko'rsatadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda 2020-yilda umumiy maydoni 12 677,4 ming kv.m turar joy ishga tushirilib, 2019-yilga nisbatan 87,5 % ni tashkil etdi. Foydalanishga topshirilgan turar-joylarning viloyatlar bo'yicha maydoni quyidagicha: Buxoro viloyati 1296,3 ming kv.m, Namangan viloyati 1265,6 ming kv.m, Toshkent viloyati 1264,7 ming kv.m, Andijon viloyati 1125,8 ming kv.m, Surxondaryo viloyati 1167,9 ming kv.m, Qashqadaryo viloyati 1026,8 ming kv.m, Farg'ona viloyati 943,6 ming kv.m, Navoiy viloyati 898,4 ming kv.m, Samarqand viloyati 788,6 ming kv.m, Xorazm viloyati 688,9 ming kv.m, Toshkent shahri 603,9 ming kv.m, Qoraqalpog'iston Respublikasi 728,5 ming kv.m, Jizzax viloyati 516,1 ming kv.m, Sirdaryo viloyati 358,5 ming kv.m ni tashkil etdi. Ijtimoiy qurilish ob'ektlarini qurish uchun eng ko'p investitsiya jalb qilingan viloyat Buxoro viloyati hisoblanadi. Biroq Buxoro viloyatida aholi salmog'i pastroq Respublikada 1 976 866 kishi bilan 9-o'rinda turadi. Aholi soni 4 031 299 kishi bo'lgan va Respublikada 1-o'rinda turgan, Samarqand viloyatida ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish salmog'i past bo'lgan.

Yuqorida aytib o'tilgan ijtimoiy soha ob'ektlari davlat mulki bilan bir qatorda, xususiy mulkchilik tomonidan ajratilgan sarmoyalar hisobiga ham qurilgan. Buxoro viloyatida qurilish ishlarining yuqori bo'lishiga asosiy sabablardan biri, aholining o'rtacha daromadlari yuqori ekanligi desak mubolag'a



bo'lmaydi. Buxoro viloyatida aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar hajmi 14 474,0 ming so'm bo'lib Respublikada Toshkent shahri va Navoiy viloyatidan so'ng 3-o'rinda turadi. Mamlakatimizda investitsiyalar siyosati rivojlanib borayotgan hozirgi vaqtda, hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy holat va o'zgarishlarni o'rganib, tadqiq qilib borish muhimdir. Har bir kiritilayotgan investitsiya o'zini oqlamog'i va aholiga qulaylik yaratmog'i lozim. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarga asosan davlat byudjeti hisobidan investitsiyalar kiritiladi. Demak, bu sohada sotsial geografiktadqiqotlarning asosiy vazifasi, davlatga har bir hududdagi aholining ijtimoiy yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumot berishdir va shu asosda mamlakatimiz hududlarda ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish uchun sarmoya kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov.M, Tojiyeva.Z. Ijtimoiy geografiya. Toshkent. 2003.
2. Soliyev.A, Qarshiboyeva .L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Toshkent. 1999.
3. Soliyev.A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. Toshkent. 2007.
4. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.
5. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.